

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING (AQLI ZAIF) NUTQIY KAMCHILIGINI BARTARAF ETISHDA DIFFERENSATSIYA USLUBINING O'RNI VA AHAMIYATI

Ilmiy izlanuvchi

Ikromova Farangiz Yigitali qizi

Annotatsiya: *Maqolada imkoniyati cheklangan (aqli zaif) yoki ma'lum tashxisga ega (autizm, daun, altsgeymer) bolalarning nutq muammolarini differensatsiya uslubi asosida vokal ijrochiligi ko'nikmalari hamda ishlab chiqilgan musiqiy metodlar orqali bartaraf etish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga mashg'ulot olib borish uchun bir qator tavsiyalar keltirilgan*

Kalit so'zlar: *differensatsiya autism, altsgeymer, daun, vokal, nutq, ohang.*

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy umuman olganda har tomonlama rivojlanib kelmoqda. Jumladan ta'lim sohasini tubdan rivojlantirish, ayniqsa inkluziv ta'limga alohida e'tibor qaratilib, O'zbekistonda aqli zaif bolalarni jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari uchun ularni ijtimoiy-maishiy hayotga moslashtirib borishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Har bir bola jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lib, u sifatli ta'lim olish, rivojlanish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish huquqiga ega. Bugungi kunda dunyo miqyosida va O'zbekiston Respublikasida aqli zaif bolalarga qaratilgan e'tibor sezilarli darajada ortib bormoqda. Ularning jamiyatga to'laqonli qo'shilishi, qobiliyatlariga mos ta'lim olishlari uchun maxsus dasturlar, pedagogik yondashuvlar, uslublar ijtimoiy ko'mak tizimlari joriy etilmoqda. Mana shunday uslublardan biri bu differensatsiya bo'lib ushbu usuldagi ta'lim aynan imkoniyati cheklangan, aqli zaif bolalarning nutq kamchiliginini bartaraf etishda muhim o'rin kasb etadi. Dastlab ushbu uslubning tarixiy va nazariy asoslariga yuzlansak. Differensatsiya uslubi shu qadar keng tushunchaki u har bir sohada qo'llanilgan va hozirga qadar ushbu uslub o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Dastlab "differensatsiya" so'zining lug'aviy ma'nosiga yuzlansak. Ushbu so'z lotinchadan kelib chiqib "farqlanish" ajratish" degan ma'noni anglatadi. Ushbu atama juda ko'p o'xshashliklarga ega bo'lib bir nechta xususiyatlari mavjud. Tarixan ushbu atama 1933-yilda Edvard Chamberlin tomonidan ishlab chiqilgan. Iqtisodchi sifatida olim differensatsiya uslubini tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun o'z sohasida ilk bor foydalangan. Musiqada esa differensatsiya tushunchasini ilk bor aniq ko'rsatgan kompozitorlardan biri Jon Sebastiyen Bax hisoblanadi. U o'z asarlarida melodiya va garmoniya o'rtasidagi farqlarni ta'kidlab, musiqaning turli qatlamlarini o'zaro bog'lab ishlatgan. Shuningdek, 18-asr oxiri va 19-asr boshlarida Lyudvig Van Betxoven o'z asarlarida bu tushunchani yanada kengaytirgan. Differensatsiya so'zining asl ma'nosi ajratish ya'ni musiqa o'rganuvchilarga individual, yakka tarzda bilim berishdir. Hozirgi kunda bir qancha davlatlar qatori bizning yurtimiz O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan jumladan aqlan zaif bolalarga, alohida shart va sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Chunki unib o'sayotgan har qanday inson aynan vatanimiz kelajagi hisoblanadi. Nogiron - jismoniy, aqliy, psixologik va hissiy faoliyatning izdan chiqishi, shikastlanishi natijasida hayot faoliyatining cheklanishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan va ijtimoiy yordam hamda himoyaga muhtoj bo'lgan shaxs tushuniladi. Bunday turdagi bolalarning

tashxisi atrof muhit bilan uzviy aloqa qilishga imkon bermasligi, so'zlashish qobiliyati mavjud emasligi hamda o'z xohishlarini bayon qila olmasligi tufayli ularga dastlabki ilk ta'limni differentsiya uslubi ya'ni yakka tartibda shug'ullangan holatda, jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari uchun dastlabki mayoq sifatida xizmat qiladi. Ma'lum bir muddat yakka tartibda olib borilgan darslardan so'ng jamoa tarzida ham mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin. Ruhan imkoniyati cheklangan bolalarni davolash qanchalik erta boshlansa, muvaffaqiyatga erishish ehtimoli shunchalik ko'proq bo'ladi. Shuning uchun, imkoniyati cheklangan bolalarni ikki yoshligidan boshlab turli mashg'ulotlar yordamida davolash va rivojlantirish mumkin. Ma'lum tashxisga ega bola erta yoshdan boshlab noan'anaviy harakatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadi. Bundan tashqari uning o'z ismiga reaksiya qilmasligi holatlari ni kuzatishimiz mumkin. Ikkinchi navbatda esa, bunday bolalar atrofdagi voqea hodisalarga beparvo o'z qobig'iga o'ralib tashqi dunyodan uzilib qoladilar. Ularning deyarli 80% da nutq nuqsonlari mavjud bo'lganligi bois o'z fikrlarini atrofdagilarga yetkazib berishlari qiyindir. Shuning uchun ham ular aynan nima xoxlayotganini turli tushunarsiz ovozlari baqirishlari va injiqliklari bilan ifoda etadilar. Ularning bunday ruhiy buzilish, miya faoliyati rivojining kechikishi, tengdoshlariga nisbatan ortda qolish, nutq nuqsonining mavjudligiga aynan nima sababdan ekanligini haligacha aniqlangani yo'q. Ammo shunga qaramay bu turdagi bolalar bilan ishlash metodlari ancha yillardan buyon yevropa davlatlari shuningdek, o'rta osiyoda ham mavjud. Ko'pincha autizm, daun, shizofreniya, aqliy zaiflik kabi tashhis qo'yilgan bolalar bilan ishlash maxsus o'quv markazlarda individual shaklda olib boriladi. Dastlab nervpatolog tomonidan aniqlangan tashxisdan kelib chiqib defektolog yordamida bola uchun maxsus kun davomida logopediya, musiqa, art terapiyasi, hamda defektologiya mashg'ulotlari olib borilishi haqida ish reja tuziladi. Logoped mutaxasislari bolaning nutqini chiqarish unda mavjud bo'lgan tovushlarni rivojlantirish bilan shug'ullansa, defektologlar ushbu nutqni miya faoliyati orqali ongli ravishda ifoda etishiga ma'suldirlar. Shu o'rinda aqliy zaiflik turlari va tushunchalariga misollar keltirish mumkin. Aqli zaiflik bu bola intellektual va psixik rivojlanishining sustligi bilan bog'liq bo'lgan holat bo'lib, u bolaning bilim olish, muloqot qilish, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy hayotda ishtirok etishida muammolar keltirib chiqaradi. Aqli zaiflik yengil, o'rtacha va og'ir darajalarga bo'linadi. Ikki yoshli bolalarda tashqi olam haqidagi tasavvur doirasi juda tor, nutqi yaxshi rivojlanmagan, asab tizimi, eshitish va vizual hislari kuchsiz, harakatlari muvofiqlashmagan, e'tibori noturg'un xatto o'z ismiga reaksiya qilish holatlarining yo'qligi mavjud bo'lishi mumkin. Odatda, bunday bolalar tovushlarni taqlid qilish, oddiy musiqiy ohanglarni bo'g'inlab kuylab berish va talaffuz qilish ko'nikma, malakalariga ega bo'lmaydilar. Bolalar musiqa bilan harakatlarini qanday muvofiqlashtirish kerakligini, bilmaydilar, eshitish va ko'rish orqali o'z hatti-harakatlari bilan tashqi signallarga munosabat biladira olmaydilar. Lekin ularda taqlidchanlik xususiyatlari bor, bu ham bo'lsa musiqiy-ritmik harakatlarda, ohanglarni hirgoyi qilishda va qo'shiq kuylashda namoyon bo'ladi. Harakatli, qo'shiq bilan uyg'unlashgan o'yinlar (masalan, "qo'shiq aytib yurish", "musiqa ostida savolga javob berish") yordamida bolaning diqqat-e'tibori, eshituv reaksiyasi va nutq faolligi rivojlanadi. Oddiy harakatlar (masalan, qarsak chalish, yurish, sakrash) musiqa ritmi asosida bajariladi. Bu og'zaki ko'rsatmalarni tushunishni, harakatlarni so'z bilan bog'lashni, ifodali nutqni rivojlantiradi. Logopedik mashg'ulotlar va musiqiy ritmik harakatlarning kombinatsiyasidir. Gapirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda juda samarali metod

hisoblanadi. Logoritmik mashg'ulotlarda quyidagi elementlar mavjud: musiqa ostida she'r o'qish, so'zlarni ritmik talaffuz qilish, artikulyatsion mashqlarni musiqa mos bajartirish. Defektolog-logoped bolaning nutq kamchiliklarini aniqlaydi va shunga mos mashqlar tayyorlaydi. Musiqa rahbari bolaning emotsional faolligini uyg'otadi, musiqa orqali motivatsiyani kuchaytiradi. Imkoniyati cheklangan ya'ni aqlan zaif ruhan nosog'lom bola musiqiy ohanglarni anglab yetganda musiqiy asarga usul berishi, qo'shiq aytishi yoki musiqiy asar parchasini xirgoyi qilishi mumkin. Musiqa terapiyasi ruhiy tushkunlikdagi bemorlarni davolash uchun ideal muolaja hisoblanadi, ammo o'z navbatida shuni ham hisobga olish kerakki, jiddiy depressiyani boshqarish va ortiqcha harakatlar bilan atrofdagilarga ziyon yetkazish darajasiga yetgan bemorni tinchlantirish uchun dori vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Musiqa terapiyasi, individual dars metodlari, pedagogik kuzatuv va diagnostika vositalari bilan boyitilgan fikrlarni amaliyotda qo'llash mumkin. Ko'pincha maxsus ta'lim oluvchi bolalar jamoaviy mashg'ulotlarga nisbatan differentsiatsiya tarzida olib boriladigan darslarga ehtiyoj sezadi. Yuqorida keltirib o'tilganidek, bunday bolalarni inkluziv ravishda ta'lim boshlashdan oldin yakka tartibda, ba'zi hayotiy ko'nikmalarni o'rgatib olish maqsadga muvofiqdir. Bunday o'rganuvchilarning dars mashg'ulotlari orasida nafaqat defektologik balki musiqa hamda rasm darslarining o'rni beqiyos. Musiqa art terapiyasining eng katta bo'limlaridan biri hisoblanadi. Musiqa orqali bolada

- eshitish qobiliyati rivojlanadi
- ritmni tushunish va tahlil qilish qobiliyati kelib chiqadi
- fonematik takrorlashni boshlaydi
- logoritmika va solfedjio darslarida esa bola to'g'ri nafas olishni buning natijasida nutqida mavjud kamchiliklarni to'g'irlashni o'rganadi

Shuningdek differentsiatsiya uslubini kreativ yondashuv asosida tadbqiq etishning quyidagi metodik jihatlari mavjud. Imkoniyati cheklangan ya'ni biror tashxisga ega bo'lgan bolaning nutqini shakllantirish uchun bir necha metodik jihatlarni ko'rish mumkin:

Pufakcha metodi: bunda pedagog tarbiyalanuvchini nafas olishini to'g'ri yo'lga qo'yishi uchun maxsus o'yinchoq "puzirik"dan foydalanishi mumkin. Tabiiyki, o'rganuvchi o'yinchoqdan chiqqan pufakchalarga qiziqadi va o'zi ham sinab ko'rgisi keladi. Natijada nafas olib uni asta-sekinlik bilan chiqarishni mashq qiladi;

Soat metodi: bunda vokal o'qituvchisi tomonidan nutqida muammosi mavjud bolaga soat chiqqilashi bilan bog'liq musiqa qo'yiladi va musiqaning ritmi asosida til o'ng, chap, tepa va pastga tomon harakatlantiriladi. Buning natijasida o'rganuvchida qotib qolgan og'iz muskullarini ishlatishning imkoni tug'iladi;

Neyrogimnastika : ushbu metod frontal ya'ni jamoaviy tarzda olib boriladi. Bunda bolalar musiqa ritmi asosida ikki qo'l harakatlarini ikki xil tarzda ishlatadilar. Misol uchun o'ng qo'l bilak bo'ylab aylansa, chap qo'l barmoqlari ochilib yopiladi. Bu murakkab bo'lgan mashq turi hisoblanadi, ammo aqlan zaif bo'lgan bolaning miya yarim sharlarini yaxshi ishlashiga va nutqni shakllantirishda foydali bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan maxsus metodlar tajriba-sinov ishlarida 80% muvaffaqiyat qozongan bo'lib nutq muammolarini bartaraf etishda ko'makchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.Rahimov. “Vokal”. Toshkent 2017.
2. A.Nazarov, O.Bekov, O'zME Birinchi jild, Toshkent.2000
3. Q.Fozilov. “Vokal ijrochiligida ovoz usullari”. Scientific Methodical Journal Volume 4, Issue 3, June 2023.
4. N.Xabirova, “O'zbekistonga vokal san'atining kirib kelish tarixi, rivojlanish bosqichlari”. 37-to'plam, 3-qism.
5. J.Saidov. “O'zbek opera san'atining shakllanish asoslari”, Central Asian Journal of Education and Innovation, December.2022.
6. H.Orifjonov, “O'zbekistonda akademik xonandalik yo'nalishini rivojlanishi va shakllari”, Theoretical and Practical Foundation of Scientific Progress in Modern Society.
7. B.Qo'ldoshboyev, “O'zbek operalari librettosi”, Scientific Methodical Journal Volume 5, Issue 2, April 2024.
8. A.Malikov, “Ovoz tarbiyalashda vokal pedagogikasining nazariy ahamiyati”, Innovation academy.
9. A.Haydarov. “Vokal” Qo'qon, 2019 5-bet
10. M.Qurbonova, “Estrada xonandasining kuylash uslubi”, Innovation Development in Educational Activities, Volume 2, Issue 7, 2023.